№ 13-AMALIY MASHG‘ULOT



INTERNET TARMOG’IDAN FOYDALANISH.

Ishning maqsadi: *internetda va elektron pochta bilan ishlashdan maqsad quyidagilardan iborat:*

- **Aloqa o‘rnatish:** *elektron pochta dunyoning istalgan nuqtasidagi insonlar bilan tez va oson aloqa o‘rnatish imkonini beradi.*
- **Hujjat almashish:** *elektron pochta orqali turli xil hujjatlar, rasmlar, videolar va boshqa fayllarni yuborish va qabul qilish mumkin.*
- **Rasmiy muloqot:** *elektron pochta ishbilarmonlik muloqotlari uchun keng qo‘llaniladi. U orqali rasmiy xatlar, takliflar, shartnomalar va boshqa muhim hujjatlar yuboriladi.*
- **Axborot olish:** *elektron pochta orqali yangiliklar, e’lonlar, reklamalar va boshqa axborotlarni olish mumkin.*
- **Ro‘yxatdan o‘tish:** *ko‘pgina onlayn xizmatlar va web-saytlarda ro‘yxatdan o‘tish uchun elektron pochta manzili talab etiladi.*
- **Xabarnomalar olish:** *elektron pochta orqali turli web-saytlar va onlayn xizmatlardan xabarnomalar olish mumkin.*
- **Marketing:** *elektron pochta marketing maqsadlarida ham keng qo‘llaniladi. U orqali mijozlarga aksiyalar, chegirmalar va boshqa takliflar haqida xabar beriladi.*

Elektron pochta zamonaviy aloqaning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, turli sohalardagi insonlar uchun muhim vosita hisoblanadi.

Vazifalar:

1. talabalarga mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yetkazishni ta’minlash;

2. mavzuni yoritishda lozim bo‘ladigan dasturiy ilovadan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

3. internetdan ta’limiy maqsadlarda foydalanishning asosiy qoidalarini o‘rgatish.

O‘quv vositalari: *shaxsiy kompyuter, multimediali proektor, ekran, LCD monitor,markerlar, ish daftari, tarqatma materiallar.*

Qisqacha nazariy ma’lumot

Internet bu XX asrda kashf etilgan telekommunikatsion va kompyuter tarmoqlar majmuidir.

Internet tushunchasi. Internet bu yagona standart asosida faoliyat ko`rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog`idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya’ni “International Network” – xalqaro tarmoq va “Interconnected networks” «tarmoqlararo» degan ma’noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi bo`lib, o‘zining alohida axborot maydoniga ega bo‘lgan virtual to‘plamdan tashkil topadi.

Internetning asosiy xizmat turlaridan biri bu – elektron pochtadir. Hozirgi paytda internetdan foydalanuvchilarning aksariyati elektron pochtadan foydalanishadi. Elektron pochtadan to’g’ri va unimli foydalanish uchun quyidagi tavsiyalar bilan tanishib chiqish foydadan holi bo’lmaydi.

Elektron pochta (e-mail, electronic mail) oddiy pochta bajaradigan vazifalarni bajaradi. U bir manzildan ikkinchisiga ma’lumotlar jo’natilishini va qabul qilinishini ta’minlaydi. Uning asosiy afzalligi foydalanishning qulayligi va ko’p vaqt etmasligida. Elektron xatlar jo’natilgan zahotiyoq manzilga boradi va xat jo’natuvchining va xatni qabul qiluvchining pochta qutisida saqlanadi.

Elektron pochta manzili: pochta qutisi nomi (name) va pochta serveri manzilidan (domain2 – tashkilot nomi, domain1 – asosiy domen) iborat bo’ladi. **Masalan,** name@domain2.domain1.

Mashg‘ulot rejasi:

1. **Kirish qismi** *(5 daqiqa)***:**
   1.1. talabalar bilan salomlashish va mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish;
   1.2. amaliy mashg‘ulotni bajarish yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish.
2. **Asosiy qism** *(30 daqiqa)*:

2.1. talabalarning ish faoliyatini kuzatib borish;

2.2. to‘g‘ilgan savollarga javob berish;

3. Yakuniy qism *(10 daqiqa)*:

3.1. talabalar ishlarini tekshirish va muhokama qilish;

3.2. talabalarni rajbatlantirish;

3.3. talabalar uchun uy vazifalarini berish.

3.4. mashg‘ulotni yakunlash.

Mashg‘ulot jarayoni:

Mashg‘ulot davomida talabalar faolligini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish;

Har bir talabaga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini yaratib berish;

Talabalarning mashg‘ulotga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga erishish.

Qo‘shimcha tavsiyalar:

Mashg‘ulotni o‘tkazishdan oldin kompyuterlar va dasturlarning ishga tayyorligini tekshirish talab etiladi. Talabalarning bilim darajalari hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga axborot xavfsizligi qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berish lozim.

Ushbu ishlanma boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Topshiriqlar:

1-topshiriq.

“Internet bo‘ylab sayohat”. Internetda axborotlarni topish va yuklab olish yo‘llarini izohlang va amalga oshirishni namoyish eting. “Qidiruv mexanizmlari” nima va ulardan qanday foydalanish mumkin?;

2-topshiriq. Elektron pochta ochishni izohlang va amalga oshiring. Elektron pochta bilan ishlashni izohlang.



3-topshiriq.

Quyidagi brauzer rasmlari keltirilgan, talabalar ularning nomlari va imkoniyatlarni haqida 6 slayddan iborat taqdimot yaratishlari lozim.



4-topshiriq. “Bolalar internetda” mavzusida interaktiv mashg‘ulotni tashkil etish loyihasini ishlab chiqing.

Vazifa: “Xavsiz internet” mavzusining o‘rgatuvchi taqdimotini yaratish va elektron pochta orqali yuborishni so‘rash.